



yondashuv natijasida ijodiy tafakkur, ilmiy algoritmlar va texnologik innovatsiyalar bir tizimda uyg‘unlashadi.

Shuningdek, AI yordamida naqsh generatsiyasi moda sanoatida ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi - virtual sinovlar orqali mato isrofi kamayadi, energiya sarfi qisqaradi va “zero-waste fashion” tamoyillariga erishiladi. Shunday qilib, sun’iy intellekt asosida naqsh yaratish tizimlari modaning raqamli transformatsiyasini tezlashtiribgina qolmay, yangi ilmiy-estetik paradigmaga -“Virtual badiiy loyihalash davriga” asos solmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Wilson, H. (2017). The Development of Textile Patterning Techniques. Journal of Textile Technology, 15(2), 88–103.
- 2.Carter, P. (2019). 3D Modeling and Pattern Making in Fashion Design. Fashion Design and Technology Review, 23(4), 45–59.
- 3.Martin, S. (2020). The Role of Artificial Intelligence in Pattern Creation. Journal of Textile Innovation, 32(3), 150–165.
- 4.Zhao, Y., & Huang, J. (2021). Advances in Digital Pattern Making for Fashion. Textile Science and Technology, 27(5), 112–124.
- 5.Kim, S., & Hsiao, L. (2022). Text-to-Pattern AI Systems in Virtual Fashion. International Journal of Smart Design, 14(1), 37–49.
- 6.Patel, R., & Nguyen, T. (2023). Generative Adversarial Networks in Fashion Industry Applications. IEEE Transactions on Emerging Topics in Computing, 11(2), 114–129.
- 7.Zheng, Y., & Park, J. (2023). Artificial Intelligence for Digital Fashion Transformation: A Systematic Review. Computers in Industry, 152(4), 103–121.
- 8.O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(4), 380-388.
- 9.R.A.Tursunov. (2025). IJTIMOY ONG VA MA’NAVIYAT UYG‘UNLIGINING IJTIMOY MUHITGA TA’SIRI. *ZAMONAVIY FAN: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA YOSH TADQIQOTCHILARNING DOLZARB IZLANISHLARI*, 1(1), 16-19.

ABDULLA QAHHORNING “O‘G‘RI” HIKOYASINING HOZIRGI DAVR BILAN MOSLASHISHI

Norboboyev Diyorbek Baymat o‘g‘li

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalish 2-bosqich 204-guruh talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhor serqirra ijodkor, taniqli davlat arbobi va ko‘plab hikoyalar muallifi hisoblanadi. Uning asar va hikoyalarida xalq hayotini, odamlarning orzu intilishlarini, ijtimoiy muammolarini teran yoritib bergan yozuvchidir. Abdulla Qahhor hikoyalarida xalqning o‘ziga xos hayot tarzi, odatlarini, inson fazilatlarini hamda illatlarini o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda ham amaldorlar oddiy xalqni azoblashini, nohaqliklar qilishini ko‘rishimiz mumkin. Hikoyada bizga hammaga birdek momila va tarbiya jihatlarni o‘rgatib boradi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar: Qobil bobo, kampir, ellikboshi, amin, pristavga, Egamberdi, paxtafurush.

ADAPTATION OF ABDULLA QAHHOR'S STORY "THE THIEF" TO THE PRESENT TIME

Norboboyev Diyorbek Baymat oğlu

Samarkand State University Urgut Branch

Faculty of Pedagogy and Language Teaching, 2nd year, Primary Education, Group 204, Student.

Abstract: In this article, Abdullah Qahhor is considered a versatile artist, a well-known statesman, and the author of many stories. He is a writer who has deeply covered the life of the people, the dreams and aspirations of the people, and social problems in his works and stories. Abdullah Qahhor's stories include the unique lifestyle, customs, human qualities, and vices of the people. Even today, we can see that officials



torture and commit injustices against ordinary people. It is no exaggeration to say that the story teaches us the same attitude and upbringing aspects for everyone.

Keywords: Grandfather Cain, old woman, chief of fifty, amen, to the priest, the cotton merchant.

АДАПТАЦИЯ РАССКАЗА АБДУЛЛЫ КАХХОРА «ВОР» К НАСТОЯЩЕМУ ВРЕМЕНИ

Норбобоев Диёрбек Баймат оглу,

*Самаркандский государственный университет, Ургутский филиал
Факультет педагогики и преподавания языков, 2 курс, начальное образование, группа 204,
студент.*

Аннотация: В этой статье Абдулла Каххор рассматривается как разносторонний художник, известный государственный деятель и автор множества рассказов. Он – писатель, глубоко отражающий в своих произведениях и рассказах жизнь народа, его мечты и стремления, а также социальные проблемы. Истории Абдуллы Каххора отражают уникальный образ жизни, обычаи, человеческие качества и пороки народа. Даже сегодня мы видим, как чиновники подвергают простых людей пыткам и несправедливостям. Не будет преувеличением сказать, что эта история учит нас одинаковому отношению и воспитанию для всех.

Ключевые слова: Дедушка Каин, старуха, пятидесятник, аминь, священнику, торговцу хлопком.

Kirish.

Bu hikoya 1936-yillarda Abdulla Qahhor tomonidan yozilgan. Bir o‘qishda voqealar rivoji kitobxon hayolida gavalansada, ammo buning tag mohiyatida juda katta ma’no yashiringan. Asarga epigraf qilib olingan maqolaga etibor qaratsak: “Otning o‘limi itning bayrami”. Bu bilan Abdulla Qahhor nima demoqchiligini asar bilan tanishib keyin izohlaylik. Ma’lumki asar sho‘rolar davrida yozilgan. Bu davrda oddiy xalqning ongsizligi, bilimsizligi asarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Asar obrazlariga to‘xtalsak. Qobil bobo sodda, o‘qimagan, oddiy bilimsiz kishi. Shu sababli ham mansabdor amaldorlar uni alday olishgan. Uning kampiri ham juda sodda, ishonuvchan bo‘lgan. Mansabdor shaxslar bu vaziyatdan unumli foydalanib qolishgan. Agar biz hozirgi zamon bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, o‘sha zamonda ham mansabdor shaxslarni mansabi evaziga korrupsiyani yuzaga keltirib chiqarganligini ko‘rishishimiz mumkin.

O‘sha zamonda vaziyat og‘ir, yashash qiyin bo‘lganligi uchun ham Qobil boboni ho‘kizi yo‘qolishiga sabab bo‘lgan. Chunki ho‘kizni o‘g‘irlagan noma’lum inson ham och qolmaslik uchun shu ishni qilgan.

Asardagi voqeylikka keladiga bo‘lsak, Qobil bobo ho‘kizini yo‘qolganligiga kuyinib yig‘layotgan bir paytda, burunsiz ellikboshining “Ho‘kizing oq poshsho qo‘l ostidan chiqib ketmagan bo‘lsa, albatta topiladi” degan gapi soddagina Qobil bobo hayolida ho‘kizni juda naqd qilib qo‘ydi. Hatto Qobil boboning o‘ylashicha ko‘chaga chiqsa bas ho‘kiz topiladi. Ammo Qobil bobo amin yoniga boradigan bo‘lganda asardagi maqol juda o‘rinli ishlatilgan edi. Ya’ni “Quruq qoshiq og‘izni yirtadi”, “Berganga bitta ko‘p, olganga o‘nta kam”. Shu sababli sodda Qobil bobo kampiri bilan kengashib shunday qarorga kelishadi: bu chiqim oxirgi va ho‘kizni bo‘ynidan bog‘lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas. Ammo ular xato o‘ylashgan edi. Qobil bobo amin uchrashgandagi aminning xatti harakatlariga e’tibor beraylik. Aminning og‘zini ochmasdan qattiq kekirishi, baqbaqasini osiltirib kulishi oddiy xalqqa shunchalik bee’tiborligidir.

Uning Qobil bobo bilan qilgan g‘alatamos savol-javobi:

-Ha sigir yo‘qoldimi?

-Yo‘q sigir emas ola ho‘kiz edi.

-Ho‘kizmidi...Ho‘kiz ekan-da...Ola ho‘kiz tavba!

Endi asar nomi nima uchun “O‘g‘ri” ekanligiga e’tibor qaratsak. Yuqoridagi fikrlarimdan ko‘rinib turibdiki, aslida haqiqiy „O‘g‘ri”lar amaldorlar ekan. Asarda „Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin” degan ibora qo‘llangan. Endi yaxshilab o‘ylab qarasa, dehqonning ham ho‘kizi yo‘qolganiyu ham uyi kuyganligini ko‘rishimiz mumkin. Soddagina Qobil bobo qiyofasida o‘sha davrdagi oddiy ishonuvchan xalqni, amaldorlar qiyofasida esa xalqni boshiga ish tushganda xalqni borini yeydigan mansabdor shaxslarni juda ravshan tasvirlab berilganligini anglab yetishimiz mumkin.



Abdulla Qahhor bu asarda maqol va iboralardan juda o‘rinli foydalangan. Hatto epigrafning birgina o‘zi butun boshli hikoya mazmunini keltirib chiqargan. Ya’ni “O‘tning o‘limi, itning bayrami”. Bu bilan Abdulla Qahhor “Ot Qobil bobodek oddiy insonlar bo‘lsa, it ularning boshiga ish tushganda qorni to‘yadigan amaldorlar qiyofasidir” - deb tasvirlangan.

“O‘g‘ri” hikoyasida faqat chol va kampirning ho‘kizi yo‘qolganligida emas, balki butun bir jamiyat amaldorlar dastidan aziyat chekayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu hikoyada kambag‘allarni qiynalganligi yaqqol ko‘rsatib berilgan. E’tibor beradigan bo‘lsak, hikoyada o‘g‘ri nima uchun ho‘kizni o‘g‘irlagani haqida so‘z bormagan. Lekin o‘g‘rini o‘g‘irlik qilishga majbur qilgan narsa nima ekan deb keng mushohada qiladigan bo‘lsak, o‘sha davrda qashshoqlik, pulga muhtojlik, juda katta sabablardan biri bo‘lgan.

Qobil bobo va kampir birgina ho‘kizni topish uchun sarf qilgan harajatlaridan ham ko‘rishimiz mumkinki, boshqa hech vaqosi bo‘lmaganidan ho‘kizni topish uchun qilmagan chorasi qolmaydi. Afsuski, amaldorlar bundan foydalanib qoladilar holos.

Hikoya bugungi kunning ham siyosiy, ijtimoiy ahvolini tahlil qilishga yordam beradi.

Muhokama qismi.

Har bir xalq va millat o‘zining yashash sharoiti, ijtimoiy holati, tarixi va bugungi, erishgan yutuqlarini ma’lum bir qolipga solib, ulardan tajriba o‘rgangan holda xalqqa tegishli bo‘lgan hikmatli so‘zlar, maqol va matallarni yaratadi va ular umumxalq mulki hisoblanadi. Abdulla Qahhorning ham “O‘g‘ri” hikoyasida bu iboralarni juda ko‘p uchratishimiz va ma’no mazmuni nimada ekanligini keng muhohakama qilishimiz mumkin.

“O‘g‘ri” hikoyasida o‘tgan davrda amaldorlar oddiy xalqni qiynaganligini, balki insoniyatni adolatsizlikka chorlagani chuqur aks etgan.

Hikoyada tasvirlangan o‘g‘rilik fojiasi butun bir insoniyatning toptalishiga olib kelmoqda. Bu hikoyada chol va kampirning faqatgina bitta ho‘kizi borligini va uni ham yo‘qolishi, endi hech narsasi qolmaganligidan dalolat beradi. O‘sha hikoyadagi voqealarni hozirgi kunga solishtiradigan bo‘lsak hozirgi kunda ham boy amaldorlarni pora yo‘li bilan ish qilayotganligini misol tariqasida olishimiz mumkin. Hozirgi davrga kelib bunday nohaqliklarga asta sekin chek qo‘yilmoqda.

Haq-huquqlarmiz qonun yo‘li bilan hal qilinmoqda.

O‘g‘ri hikoyasida har bir qahramon bir biriga o‘xshamas harakterga ega. Barcha obrazlarda o‘zini g‘amini, foydasini ko‘zlab ish tutayotgan amaldorlarni ko‘rishimiz mumkin. Hikoya boshlanishida hikoya rivoji qanday bo‘lishi, ya’ni amaldorlar cholning ho‘kizi yo‘qolganligidan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Hikoyaning asosiy g‘oyalari:

1. Adolat va gumanizm: Hikoyada muallif insoniylikni, mehr-oqibatni, adolatni ifodalaydi.
2. Ho‘kizning yo‘qolishi: Ho‘kizning yo‘qolishidan faqatgina o‘g‘rilikni emas, balki amaldorlarni oddiy xalq ustidan ezg‘ilayotganligini ko‘rishimiz mumkin.
3. Poraxo‘rlikka qarshi kurashish: Hikoya qahramonlarida ko‘rishimiz mumkinki, hattoki elikboshi ham bu lavozimga o‘tirishi uchun mingboshiga yetti yuz bog‘ beda, bir toy bergani ma’lum. Bundan ko‘rishimiz mumkinki o‘sha davrda amaldorlar o‘rtasida poraxo‘rlik juda avjiga chiqqan. Qobil bobo esa birgina ho‘kizni topish uchun aminning o‘ziga uch yelpish tovoq jo‘xori, ikki kalava ip beradi. Shuning uchun ham hikoya boshida O‘tning o‘limi, itning bayrami deb maqol keltirilgan. Hikoya so‘ngida ho‘kiz topilmagach elikboshi Qobil boboga qaynatasidan, ya’ni Egamberdi paxtafurushdan yer haydashi uchun ikki bosh ho‘kiz olib beradi. Lekin Egamberdi bir shart bilan ho‘kiz berishini aytadi. Shartini esa kuzda aytaman deydi. Bu gapi bilan hattoki Egamberdi ham Qobil bobodan foydalanmoqchiligini idrok etishimiz mumkin.

O‘sha davrdagi voqealarni hozirgi zamon bilan taqqoslasak, o‘sha davrdagi xalqimiz juda xo‘rlangani, amaldorlar dastidan juda qattiq aziyat chekkanligini etirof etishimiz mumkin. Shukr qilib yashaymizki, hozirgi paytda ya’ni mustaqillikka erishganimizdan so‘ng bunday qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘yilmay hamma haq-huquqlarimiz qonun himoyasidadir.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shunday deyish mumkinki, yozuvchi va munaqqid Abdulla Qahhor ijod yo‘li ancha murakkab, ammo asarlari tushunarli va sodda jumalardan tuzilgan bo‘lishiga qaramay ma’no–mazmun jihatdan keng ko‘lamga egaligi bilan boshqa yozuvchilardan ajralib turadi va yozuvchining har bir asarlaridan ma’naviy ozuqa olishimiz mumkin..

Foydalanilgan adabiyotlar.



1. Sinf darsligi yettinchi sinf adabiyoti: Toshkent 2017-yil 312-315-bet.
2. Murodixon Burxonov (Abdulla Qahhor O‘g‘ri) 4-7-bet.
3. U.Normatov Abdulla Qahhor haqida xotiralar. <https://kh-davron.uz>
4. A.Qahhor Adabiyot muallimi Toshkent Yangi asr avlodi 2019-yil.
5. D.Qurbonov: Adabiyotshunoslikka kirish.
6. Karimov H.O‘tkir Hoshimov: “Yozuvchi” 2002-yil.
7. O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MUSIQA TA’LIMDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(3), 607-613.
8. Botirova Sevara Mamurovna, Tursunov Ramziddin Abdixalil o‘g‘li. (2025). MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORI. *MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O‘ZBEKISTON BUNYODKORI*, 1(1), 98-102.

XADICHA KO‘LI SUVNING SHO‘RLANISHI DARAJASIGA KO‘RA EKOLOGIK GURUXLARI

Qobulova Barno Bahriddin qizi

Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti

Email: kobulovabarno@gmail.com

Tashpulatov Yigitali Shavkatullayevich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti dotsenti

Email: yigitali_t1981@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada Buxoro viloyatidagi Xadicha ko‘li algoflorasining ekologik xususiyatlari, suvning sho‘rlanish darajasi bo‘yicha ekologik guruhlariga ajratilishi tahlil qilindi. Tadqiqot 2019-2022 yillar ma’lumotlariga asoslanib olib borilib, ko‘lda jami 216 tur algal flora aniqlangan. Suvning kuchli sho‘rlanishi ta’sirida indifferens (60,6%) turlar ustunligi va sho‘rlikka mos galofil (halofil) turlar yuqori ulushga ega bo‘lgani qayd etildi[1][2].

Kalit so‘zlar: Xadicha ko‘li, algoflora, sho‘rlanish, ekologik guruhlar, indifferens turlar, galofil turlar, galofob turlar, oligogalob, mezogalob.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ОЗЕРА ХАДИЧА ПО УРОВНЮ СОЛЕНОСТИ ВОДЫ

Кабулова Барно Бахриддин кызы

Доцент, Бухарский государственный технический университет

Электронная почта: kobulovabarno@gmail.com

Ташпулатов Йигитали Шавкатуллаевич

Доцент Самаркандского института агроинноваций и исследований

Электронная почта: yigitali_t1981@mail.ru

Аннотация. В статье проанализированы экологические особенности альгофлоры озера Хадича Бухарской области, выделение воды в экологические группы по уровню солености. Исследование было основано на данных за 2019-2022 годы, в результате которых в озере было идентифицировано 216 видов водорослей. Экологические группы Озера Хадича по уровню солености воды

Ключевые слова: озеро Хадича, альгофлора, соленость, экологические группы, индифферентные виды, галофильные виды, галофобные виды, олигогалообные, мезогалообные.

ECOLOGICAL GROUPS OF LAKE HADICHA BY WATER SALINITY LEVEL

Kabulova Barno Bahriddin qizi

Associate Professor, Bukhara State Technical University

Email address: kobulovabarno@gmail.com

Tashpulatov Yigitali Shavkatullayevich

Associate Professor of the Samarkand Institute of Agroinnovations and Research

Email: yigitali_t1981@mail.ru